

Interfaol Darslar Orqali Tanqidiy Fikrlashni Rivojlantirish

Aydin Muminova¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada interfaol darslar va ularning ichki mazmunini tashkil etuvchi turli metodlarning o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash jarayonidagi ahamiyati hamda uni rivojlantirish borasidagi ilmiy fikrlar atroflicha talqin qilingan. Shuningdek, interfaol darslarni tashkil etish va bu darslarning talabalarga qay darajada ijobjiy ta’sir etishi haqida fikrlar keltirilgan

Kalit so‘zlar: tanqidiy fikrlash, til birliklari, aqliy hujum, klasterlash, muammoli vaziyatlar, debat.

KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimi shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, unda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish muhim o‘rin tutadi. XXI asr shiddat bilan o‘zgarayotgan davr bo‘lib, shaxsdan faqat bilimlarni eslab qolishni emas, balki ulardan mustaqil foydalanishni, muammolarni hal qilishda ijodiy yondashishni va analistik fikrlashni talab qiladi. Ushbu jarayonni samarali amalga oshirish uchun o‘qitish jarayonida innovatsion texnologiyalar va interfaol dars metodlaridan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tanqidiy fikrlash haqidagi ilk nazariyalar, XX asr boshlarida paydo bo‘la boshlagan. John Dewey o‘zining “How We Think” (Biz qanday o‘ylaymiz) [1] asarida tanqidiy fikrlashni o‘rgatishning nazariy asoslarini bayon qiladi. Dars jarayonida tanqidiy savollarni shakllantirish va fikrlash jarayonini rag‘batlantirish bo‘yicha tavsiyalar beradi. Tanqidiy fikrlash bo‘yicha Edward Glaserning “An Experiment in the Development of Critical Thinking” (Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi tajribalar) [2] asari ham muhim manba hisoblanadi. Bu asar tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha ilk tadqiqotlardan biri bo‘lib, metodologik yondashuvlarni taqdim etadi. Shuningdek, Richard Paul va Linda Elder hammullifligidagi “The Miniature Guide to Critical Thinking” asari tanqidiy fikrlashning asosiy tamoyillari va uni ta’lim jarayonida qo‘llash metodlarini tushuntiradi. Tanqidiy fikrlash tushunchasi XX asrning boshlarida paydo bo‘lgan va bu tushunchaning ta’lim jarayoniga olib kirilishi XX asrning 80-yillariga to‘g‘ri keladi. Tanqidiy fikrlash texnologiyasi XX asrning 80-yillarida Amerikada paydo bo‘lgan. Rossiyada texnologiya 90-yillarning oxiridan “Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o‘qish va yozish” nomi bilan keng qo‘llanila boshlagan. L.S. Vygotskiy proksimal rivojlanish zonasini o‘rganish va bolaning umumiyligi rivojlanishi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik haqida; K. Popper va R. Paul tanqidiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish asoslari haqida; E. Braun va I. Bek metakognitiv ta’lim haqida; fuqarolik va huquqiy ta’lim va h.k.KM texnologiyasini ishlab chiquvchilari Kurtis Meredit, Charlz Templ va Ginni Still ushbu nazariyalarning qoidalarini amaliyot tiliga tarjima qilganlar, o‘z ishlarini pedagogik texnologiya darajasiga olib chiqdilar, uning bosqichlari, uslubiy texnikasi va mezonlarini ajratib ko‘rsatdilar [4].

MUHOKAMA

Tanqidiy fikrlashning eng batafsил ta’rifi R. Paul tomonidan keltirilgan. U o‘zining ilmiy izlanishlarida tanqidiy fikrlash atamasini talqin qildi va tanqidiy fikrlash – bu fikrlash jarayoni haqida o‘ylash ekanligi, shuningdek dunyo haqidagi ma’lumotlarning ko‘payishi natijasida fikrlash usullari ham o‘zgarishi, ular fikrlarni aniq bayon qilish kerak bo‘lgan joyda paydo bo‘lishi va inson aqliy faoliyatini doimiy ravishda rivojlanib borishini ta’kidlaydi [5, 5]. Umuman olganda tanqidiy fikrlash o‘z fikrlarini

¹ O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi



aniq va mantiqiy asoslash, dalillarni mustaqil tahlil qilish, mavjud ma'lumotlarga shubha bilan yondashish va yangi g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyati. Bu ko'nikma insonning nafaqat ta'lindagi muvaffaqiyati, balki kundalik hayotdagi faoliyati uchun ham zarurdir. Tanqidiy fikrlash quyidagi jihatlarni qamrab oladi:

- tahlil qilish: ma'lumotlarni bo'laklarga ajratish va ularning ahamiyatini aniqlash,
- hukm chiqarish: berilgan dalillar asosida to'g'ri xulosa qilish,
- muammoni hal qilish: mavjud vaziyatga ijodiy yondashish va yechim topish,
- argumentlarni asoslash: o'z fikrlarini isbotlash va mantiqiy dalillar keltirish.

Bugungi kunda ta'limning asosiy maqsadlaridan biri o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish bo'lib, bu ularning ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik sohalarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga imkon beradi.

Interfaol darslarning ta'rifi va ularning afzalliklari. Interfaol dars – bu o'quvchilarning faol ishtirokiga asoslangan, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida ikki tomonlama muloqtoni ta'minlaydigan ta'lim jarayonidir. Interfaol darslar ta'limning an'anaviy usullaridan farqli ravishda, bilimlarni passiv o'zlashtirish emas, balki faol o'zlashtirishni qo'llab-quvvatlaydi. Bu darslar davomida o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifoda etadi, munozaralarda qatnashadi, masalalarni birgalikda hal qiladi va mustaqil xulosa chiqarishga o'rganadi. Interfaol dars tushunchasi ta'lim sohasida bir necha olimlar tomonidan ishlaniib chiqqan va rivojlantirilgan. Ushbu konsepsiya pedagogik metodlar va kommunikatsiya texnologiyalarining birlashuvidan shakllangan bo'lib, uning rivojiga bir qancha olimlar o'z hissalarini qo'shgan. Xususan, L. Vigotskiyning "Zone of Proximal Development" (ZPD) [6] nazariyasi interfaol ta'limning nazariy asoslaridan biri hisoblanadi. U o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik orqali bilimlarni o'zlashtirishni ta'kidlagan. Shuningdek, David A. Kolbning "Experiential Learning Theory" [7] nazariyasida o'qitish jarayoni o'quvchilarning tajribalari va faol ishtirokiga asoslanishi lozimligi qayd etilgan. O'zbek olimlari va pedagoglaridan Karim Karimov pedagogik texnologiyalar va interfaol dars metodlarini O'zbekiston sharoitida qo'llash bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Yo'ldosh Eshonqulov o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan ta'lim metodikasi bo'yicha ishlagan. Ummuman olganda, interfaol dars tushunchasi turli ilmiy maktab va nazariyalar asosida rivojlangan bo'lib, har bir olim uni ta'lim jarayonining dolzarbliji va o'quvchilarning faol ishtirokini rag'batlantirish bilan bog'lagan. Ushbu yondashuv zamonaviy pedagogika va ta'lim texnologiyalarida keng qo'llaniladi. Ushbu maqolada yuqorida o'rganilgan adabiyotlar va ulardagi nazariyalarni umumiylashtirgan holda interfaol darslarni quyidagi jihatlariga e'tibor qaratildi. Birinchidan, interfaol darslarni olib borishning bir necha afzalliklari mavjud.

Interfaol darslarning quyidagi afzalliklarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Faollikni oshirish: o'quvchilar dars jarayonida faol ishtirok etib, o'z fikrlarini ochiq ifoda etishga o'rganadilar.
2. Ijodkorlikni rivojlantirish: muammoli vaziyatlarni hal qilishda ijodiy yondashuvni talab qiladi.
3. Mustaqillikni shakllantirish: o'quvchilar mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rganadi.
4. Jamoaviylikni rivojlantirish: guruhda ishlash orqali jamoaviy mas'uliyat va hamkorlik ko'nikmalar shakllanadi.
5. Qiziqishni oshirish: interfaol metodlar yordamida darslar ko'proq qiziqarli va jonli o'tadi.

Interfaol darslarni olib borishda, ya'ni dars jarayonida mashg'ulotning samaradorligini oshirishda va ko'zda tutilgan bilimni singdirish yuzasidan maqsadini amalga oshirishda interfaol metodlar muhim hisoblanadi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda qo'llaniladigan interfaol metodlar. Quyida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy interfaol metodlar va ularning qo'llanilishi bayon etiladi:

1. Debatlar va muhokamalar



O'quvchilarni muayyan mavzu bo'yicha o'z fikrlarini himoya qilishga undash uchun foydalaniladi. Masalan, "Rasmiy hujjat turlari" mavzusida o'quvchilar ikki guruhga bo'linadi. Bir guruh hujjatlarni imloviy, uslubiy to'g'risida fikrlarini keltirsa, ikkinchi guruh hujjatlarni noto'g'ri yuritish va uning oqibatlari haqida dalillar keltiradi.

2. Rol o'ynash usuli

O'quvchilar muayyan tarixiy yoki ijtimoiy vaziyatlarda turli rollarni bajaradi. Bu usul ularga hodisalarning sabab va oqibatlarini chuqur tushunishga yordam beradi.

3. "Aqliy hujum" va klasterlash. O'quvchilardan berilgan masalaga yechim topish uchun erkin fikrlar bildirish so'raladi. Barcha takliflar klasterlarga guruhlanadi va eng yaxshi yechimlar tanlanadi.

4. Venn diagrammalari

Ikki yoki undan ortiq hodisalar o'xshash va farqli jihatlarini taqqoslash orqali mavzuni chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

5. Muammoli vaziyatlar yaratish

O'qituvchi dars davomida o'quvchilarga muammoli savollar beradi va ularning turli fikrlarini tinglab, to'g'ri xulosaga kelishlarini ta'minlaydi.

XULOSA

Interfaol darslar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda samarali vosita vazifasini o'taydi. Guruhlarda ishslash, munozara qilish va boshqa faol metodlar o'quvchilarning fikrlarini chuqurlashtiradi, mustaqil tahlil qilish va qaror qabul qilish qobiliyatlarini oshiradi. Tanqidiy fikrlash o'quvchilarga nafaqat akademik bilimlarni o'zlashtirishda, balki hayotdagि muammolarni hal qilishda ham yordam beradi. Interfaol darslar bu jarayonni jonlantirib, o'quvchilarga o'z fikrlarini erkin ifoda etish, dalillarni tahlil qilish, va fikrlarni mantiqiy asoslashda yordam beradi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda interfaol metodlar, masalan, "debating" (munozara), "brainstorming" (aqliy hujum), va "role-playing" (rol o'ynash) tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muvaffaqiyati qo'llanilmoqda. Bu metodlar o'quvchilarning ishtirokini faollashtiradi va ularni jamoada ishlashga undaydi. O'qituvchilar interfaol metodlarni darslarga joriy qilishda talablarni yengillashtiradigan, o'quvchilarni tashabbuskor va mas'uliyatli bo'lishga undaydigan yo'l-yo'riqlarni ishlab chiqishlari kerak. Darsda faol ishtirok etish o'quvchilarni yanada samarali o'rganishga undaydi. Tadqiqotlar interfaol metodlarning yanada kengaytirilgan va diversifikatsiyalangan shakllarini ishlab chiqish, masalan, zamonaviy texnologiyalar yordamida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganishni talab qiladi. Interfaol darslar, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanishi kerak. Bu metodlar nafaqat o'quvchilarning bilim olishida, balki ularning shaxsiy va ijodiy rivojlanishida ham muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Dewey J. How we think. New York: head and co-publisher, 1910. 242-p.
2. Glaser E. An Experiment in the Development of Critical Thinking. Columbia University, 1941. 212 p.
3. Paul R., Elder L., the Miniature Guide to Critical Thinking Concepts and Tools. Rowman & Littlefield, 2019. 48 p.
4. Shamsiyeva M., Tanqidiy fikrlashni shakllantirishda zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati. "Science and Education" Scientific Journal, vol. 4. 2023. 844-849-b.
5. Paul R., Critical thinking, A Handbook., Sonoma state university, 1989. 5-p.
6. Vigotskiy L., Thought and language. London: The MIT Press, 1986. 342 p.
7. Kolb D. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. New Jersey: Prentice Hall. 1984.

